

RADIKALLASHUV GLOBAL XAVFSIZLIKKA TAHDID SIFATIDA: ILDIZLARI VA KO'RINISHLARI

Sardor Komil o'g'li Alimov

"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

sardoralimov2507@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada radikallashuv ijtimoiy muammo sifatida o'rganilib, uning ildizlari va mavjud ko'rinishlari, terrorizm va ekstremizm kabi global muammolar uchun asos bo'layotganligi falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: radikallashuv, tahdid, terrorizm, ekstremizm, radikallashuv ko'rinishlari, diniy radikallashuv, siyosiy radikallashuv, ijtimoiy radikallashuv, madaniy radikallashuv.

ABSTRACT

This article explores radicalism as a social problem, philosophically analyzes its roots and current manifestations, the basis for global problems such as terrorism and extremism.

Keywords: radicalism, threat, terrorism, extremism, forms of radicalism, religious radicalism, political radicalism, social radicalism, cultural radicalism.

KIRISH

Globallashuv davri barcha davlatlar, xalqlar hayotida ko'plab ijobiy o'zgarishlar olib kelgani bilan bir qatorda, turli global muammolarning vujudga kelishi bilan ham yodga qolmoqda. Shunday global ma'naviy muammolardan biri ijtimoiy hayotda radikal g'oyalar, yot mafkuralarning ko'payishi hamda ularning domiga asosan voyaga yetmagan, oq-qorani tanimagan yoshlari kirib qolayotganligi hisoblanadi. Mazkur muammo, afsuski, mamlakatimizni ham chetlab o'tmagan. Shu tufayli yoshlarni radikallashuv va zararli mafkuralardan asrashda har bir davlat xizmatchisi, jumladan, mahalladagi xotin-qizlar faolining roli muhim hisoblanadi. Mamlakatimizning mazkur yo'nalishda pozitsiyasi aniq belgilangan. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarni ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga, **dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma'rifat o'rnini jaholat egallashiga yo'l qo'yaymiz**" [1].

Yoshlar radikallashuvining oldini olish hamda mazkur jarayonning ijtimoiy salbiy oqibatlarini tahlil qilishdan oldin mazkur tushuncha ta’rif berib o’tish maqsadga muvofiq. “Radikallashuv” atamasi turli fan sohalari, ijtimoiy hayotning turli yo‘nalishlarida turlichcha qo’llanilib kelinadi. Ma’lum hodisaning radikal yoki radikal emasligini aniqlashda ushbu hodisa sodir bo‘layotgan joy, holat, vaziyat (kontekst)ning o‘rni judayam muhim [2]. Umuman olganda, **radikallashuv** (yoki radikalizm – fransuz tilidan olingan bo‘lib, “ildiz”, “o‘zak” ma’nolarini bildiradi) **shaxs yoki guruhning mavjud siyosiy, ijtimoiy yoki diniy holatga nisbatan borgan sari radikal ya’ni keskin qarashlarni qabul qilish jarayoni hisoblanadi**. Aksariyat holatlarda radikallashuvning oqibati ekstremizm va terrorizm hisoblanadi [3]. Shuningdek, radikalizm – mavjud ijtimoiy yoki siyosiydan tashqari **madaniy vaziyatni ham** tubdan va keskin o‘zgartirish istagini ham o‘zida aks ettirishi mumkin [4]. Ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, radikalizmning ko‘rinishlari, shakllari turfa xil bo‘lib, aksariyat holatlarda mavjud ijtimoiy tartibga nisbatan shakllangan radikal munosabatni ifodalaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Radikallashuv ijtimoiy kasallik sifatida, jamiyatning turli yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitetini susaytiradi, terrorizm, mutaassiblik, ekstremizm va buzg‘unchilikning boshqa shakllariga yo‘l ochadi. Radikalizm — bu mutaassiblikning bir ko‘rinishi. Radikalizm dunyoviylikni, demokratiyani, inson huquqlarini, plyuarizmni, toqatlilikni, tolerantlikni, gumanizmni, madaniyat xilmashilligini rad etadi. Radikalizmda opponent bo‘lmaydi. Bu maksimalizm – yo sen mening fikrimga qo‘silasan, agar qo‘silmasang dushmanсан. Dushman va men, degan tushuncha bor. Radikalizm murosani inkor etadi. Radikalizm o‘zining qarashlarini konstitutsion qonunchilikdan ustun qo‘yadi [5].

Radikallashuv muammosi turli salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib kelish barobarida uning ildizlari ham jamiyatdagi qmavjud muammolarga borib taqalishi mumkin. Radikallashuv va uning bevosita natijasi deb qaraluvchi terrorizm, ekstremizmnинг ildizlarini tahlil qilganda, 3 qismga bo‘lib tahlil qilish mumkin:

- 1. Mikrodarajadagi sabablar** – bevosita individual xususiyatlar bilan bog‘liq omillar bo‘lib, uning tarkibiga axloqiy tushkunlik, marginallashuv, begonalashish muammosi, diskriminatsiya (o‘ziga yoki yaqinlariga nisbatan), stigmatizatsiya, tushkunlik va psixologik muammolarni kiritish mumkin.

- 2. Mezdodarajadagi sabablar** – ijtimoiy muhit bilan bog‘liq faktorlar, xususan, oila, do‘stlar, sinfdoshlar davrasi, hamkasblar,

turli ijtimoiy guruqlar, mahalla bilan bog'liq ijtimoiy muammolar radikallashuv uchun "turtki" vazifasini bajarishi mumkin [6].

3. Makrodarajadagi sabablar – ko'lami kattaroq bo'lgan ijtimoiy makon – davlat yoki hukumat darajasidagi siyosiy qarorlarni qabul qilish, siyosiy partiyalar, milliy darajadagi ijtimoiy harakatlarning faoliyati ham radikallashuv uchun asos bo'lishi mumkin [7]. Ayniqsa, bunday qarorlar, siyosiy munosabat va pozitsiyalar ozchilikka nisbatan yo'nalgan, keskin kayfiyatda bo'ladigan bo'lsa, norozilik kayfiyatini uyg'otish ehtimoli oshadi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, ishsizlik, adolatsizlik, kambag'allik, jamiyatdan qo'rquv kabi illatlarning borligi radikallikni keltirib chiqaradi. Yoki jamiyatlarda yuqori standartlarga yetisholmaganlarga e'tibor qaratmaslik oqibatida radikallashuv sodir bo'ladi [8].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, radikallashuv hodisasi odatda faqatgina bir omil tufayli sodir bo'lmaydi, balki turli ichki va tashqi omillarning qorishmasi, birgalikdagi natijasi [9] sifatida yuzaga keladi. Shu tufayli mazkur muammoning ko'lamenti anglashda, uning mohiyatini tasavvur qilishda kompleks yondashuv, muammoga nisbatan tizimli munosabat, global fikrlash talab qilinadi.

Radikallashuvning global ijtimoiy muammo darajasiga yetishining asosiy sabablaridan biri uning turli ko'rinish va shakllari mavjud ekanligi hamda har bir jamiyatda radikallashuv g'oyalarining turlicha shakl va mazmunda namoyon bo'lishi bilan izohlanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, radikallashuv jamiyatning turli jabhalarida turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Quyidagilar radikallashuvning asosiy ko'rinishlari hisoblanadi:

Diniy radikallashuv. Radikallashuvning eng keng tarqalgan, eng ko'p uchraydigan ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Diniy radikallashuv diniy e'tiqod, qarashlar va g'oyalarning haddan tashqari kechkin, radikal talqini bilan tavsiflanadi. Diniy radikallar muayyan diniy ta'limotlarga qat'iy rioya qilishni targ'ib qilishlari, dunyoviy hayot, zamonaviy turmush tarzini inkor etishlari va hatto ba'zan o'z diniy qarashlari, mafkuralarinin targ'ib qilish uchun turli darajada tazyiq va zo'ravonlik qilishlari ham mumkin. Yuqorida tilga olganimizdek, diniy radikalizm bora-bora terrorizm va diniy ekstremizmga aylanib ketishi ehtimoli mavjud.

Siyosiy radikallashuv. Radikallashuvning mazkur shakli jamiyatning siyosiy hayotida keskin, radikal, ekstremal qarashlar va xatti-harakatlarni paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ladi. Siyosiy jihatdan radikallashuv tarafдорлари ko'pincha muhim va tez ijtimoiy yoki siyosiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashadi. Ular mavjud siyosiy tizimni, siyosiy institutlarni yoki asosiy

mafkulalarni keskinroq muqobillari foydasiga rad etishlari mumkin.

Ijtimoiy radikalizm. Ijtimoiy radikallashuv tarafdarları jamiyatda mavjud me'yorlar va qadriyatlarning chuqur o'zgarishiga, mavjud normalarning to'liq yoki qisman keskinlashuviga intiladi. Ijtimoiy radikallar jamiyatdagi gender rollari, irqiy tenglik, iqtisodiy tizimlar va sinfiy farqlar kabi masalalar bo'yicha o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga qarshi chiqishlari mumkin. Ijtimoiy radikallashuv tarafdarları ko'pincha o'zlarini tenglik vaadolat tarafdarları sifatida ko'rsatishadi, lekin ularning yondashuvlari va mafkulalari, ijtimoiy adolatni o'rnatish shakli bilan bog'liq qarashlari bir-biridan farq qilishi mumkin.

Madaniy radikallashuv. Madaniy radikallashuv ijtimoiy-madaniy hayotda qaror topgan madaniy me'yorlar, me'zonlar va an'analarni o'zgartirishga qaratilgan. Mazkur qarash tarafdarları ilg'or yoki noan'anaviy g'oyalarni ilgari surib, mavjud madaniy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlarga qarshi chiqishlari mumkin.

Texnologik radikallashuv. Radikallashuvning mazkur ko'rinishi texnologiya sohasidagi keskin o'zgarishlar va uning ijtimoiy ta'sirini keskin ravishda ortib borishini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Texnologik radikallar sun'iy intellekt, biotexnologiya, nanotexnologiya yoki atrof-muhit texnologiyalari kabi sohalarda tez o'zgarishlarga yoki hatto inqiloblarga intilishlari mumkin. Texnologik radikallashuvning odatiy texnologik rivojlanish jarayonidan asosiy farqi mazkur jarayon texnologik rivojlanishning potensial xavflarini, salbiy oqibatlarini hisobga olmaydi.

Ekologik radikalizm ekologik muammolarni hal qilish uchun ekstremal, keskin harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan. Atrof-muhit radikallari ekologik muammolarga e'tiborni qaratish uchun to'g'ridan to'g'ri harakatlar yoki ijtimoiy noroziliklarni qo'zg'ash bilan shug'ullanishi mumkin, ko'pincha atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq siyosat va amaliyotlarni tubdan o'zgartirishni qo'llab-quvvatlaydi.

Iqtisodiy radikalizm. Iqtisodiy radikallashuv mavjud iqtisodiy tizimlarga qarshi chiqib, jiddiy o'zgarishlar yoki keskin choralarini yoqlaydi. Bunga turli salbiy iqtisodiy tizim va mafkulalarni (masalan, sotsializm) himoya qilish, bozor iqtisodiyotini rad etish yoki muqobil iqtisodiy tuzilmalarni ilgari surish kiradi.

Ta'lism radikalizmi. Bu ta'lism tizimlarining radikal istiqbollarini o'z ichiga oladi. Ta'lism radikallashuvi innovatsion va transformatsion o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlab, an'anaviy o'qitish usullari, o'quv dasturlari mazmuni yoki ta'lism muassasalarining tuzilishiga qarshi chiqishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, "radikalizm" atamasining o'zi zo'ravonlik yoki noqonuniylilikni anglatmaydi. Ba'zi radikal

harakatlar ekstremal choralarni qo'llashi mumkin bo'lsa, boshqalari tinch va qonuniy yo'llar bilan o'zgarishlarni amalga oshirishi mumkin. Radikalizmning tabiatini ishtirok etayotgan shaxslar yoki guruhlarning maqsadlari, mafkuralari va usullariga qarab juda xilma-xil bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda radikallashuvning asosiy ko'rinishi sifatida diniy radikalizm namoyon bo'lmoqda. Diniy radikalizm katta buzg'unchilik kuchiga ega, chunki u jamiyat uchun muhim bo'lgan qadriyatlar va munosabatlarni shubha ostiga qo'yadi, ijtimoiy va diniy aqidaparastlik uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida odamlarni noqonuniy xatti-harakatlar sodir etishiga, radikal g'oyalar ortidan turli salbiy oqibatlarga olib keladi [10]. Diniy mazmunga ega, shu bilan bir qatorda siyosiy radikalizmga yo'naltirilgan diniy tashkilotlar yoki dindorlikning muayyan belgilariga ega bo'lgan tashkilotlar konstitutsiyaviy tuzum asoslарini kuch bilan o'zgartirishni, milliy va diniy adovat va nizolarni qo'zg'atishni hamda boshqa ekstremistik faoliyatni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi ham mumkin.

Umuman olib qaraganda, diniy radikallashuvga olib keluvchi bir qancha omillar mavjud:

Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar: Iqtisodiy nomutanosiblik va siyosiy beqarorlik radikal mafkuralarning ildiz otishi uchun qulay zamin yaratishi mumkin. Qabul qilingan adolatsiz qarorlar yoki shikoyatlar odamlarni o'z e'tiqodlarini radikal talqin qilish orqali tasalli va maqsad izlashga olib kelishi mumkin.

Madaniy va o'ziga xoslik muammolar: Keskin madaniy o'zgarishlar va an'anaviy qadriyatlarning yemirilishi radikal diniy mafkuralarning reaksiyon tarzda qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Madaniy identiklik, o'ziga xoslik bilan bog'liq muammolar, ayniqsa turli jamiyatlarda, radikallashgan shaxslar yoki guruhlar o'rtasida eksklyuzivlik va ustunlik tuyg'usini kuchaytirishi mumkin.

Noto'g'ri diniy ta'lim va targ'ibot: Ko'pincha diniy manbalar va ta'limotlarning noto'g'ri talqin qilinishi, yetarli darajada diniy ta'lim berilmaganligi ham diniy radikallashuv shakllanishiga yordam beradi. Turli vositalar, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan diniy targ'ibot materiallari jamiyatda sekin-astalik bilan ekstremistik qarashlarni shakllantirishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Diniy radikallashuv deganda shaxs ongini tubdan buzg'unchi o'zgartirishni nazarda tutuvchi radikal ta'limotga asoslangan, zo'ravonlik xarakteridagi noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etish zarurligi g'oyasi bilan birga diniy e'tiqod bilan "niqoblangan" ekstremistik qarashlarga ega bo'lish jarayonini tushunish mumkin.

Afsuski, bugungi globallashuv davriga kelib mavjud barcha asosiy diniy an'ana va ta'limotlar radikallashuvga duchor bo'lmoqda. Biroq, tarixiy shart-sharoitlar va boshqa, birinchi

navbatda, ijtimoiy-siyosiy omillar tufayli islomning radikallashuvi muammosi bugungi kunda eng dolzarb hisoblanadi. Islom dinini ekstremizm va terrorizm yoki boshqa noqonuniy harakatlar bilan ajratib ko‘rsatish mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas. Shu bilan birga, Islom dunyodagi eng yosh jahon dini va e’tiqod qiluvchilar soni bo‘yicha eng katta dinlardan biri hisoblanadi.

Aynan islomning dunyoda mashhurligi, shuningdek, islom diniga e’tiqod qiluvchi sayyoramiz aholisining ko‘plab mintaqaviy va global to‘qnashuvlar va urushlarda ishtirok etishi islom dini bilan bog‘liq radikallashuvga va diniy radikalizmning ekstremistik va terroristik harakatlarga sabab bo‘lishida namoyon bo‘lmoqda [11].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, radikallashuv ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, chuqur sabablari va keng ko‘lamli oqibatlariga ega. Ushbu murakkab muammoni hal qilish ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklarni bartaraf etish, madaniy tushunishni rivojlantirish va bag‘rikenglik hamda tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradigan ta’limni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni birlashtiradigan kompleks yondashuvni talab qiladi. Radikalizmning ildizlarini tushunib, jamiyatlar ekstremizmga to‘sinqilik qiladigan va inklyuzivlikni targ‘ib qiluvchi muhit yaratishga harakat qilishi mumkin.

REFERENCES

1. «Маърифат ўрнини радикаллашув ва жаҳолат эгаллашига йўл қўймаймиз» — президент. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/12/20/extremism/>
2. Schmid A. P. Radicalisation, de-radicalisation, counter-radicalisation: A conceptual discussion and literature review //ICCT research paper. – 2013. – Т. 97. – №. 1. – С. 22.
3. Borum R. Radicalization into violent extremism I: A review of social science theories //Journal of strategic security. – 2011. – Т. 4. – №. 4. – С. 7-36.
4. Радикализм // Большой толковый словарь русского языка. Гл. ред. С. А. Кузнецов. Первое издание: СПб.: Норинт, 1998.
5. <https://www.xabar.uz/tahlil/jamiyatda-mustaql-fikr-bogilsa>
6. Pollack J. MARC SAGEMAN, Understanding Terror Networks (Philadelphia, Penn.: University of Pennsylvania Press, 2004). Pp. 229. \$29.95 cloth //International Journal of Middle East Studies. – 2006. – Т. 38. – №. 3. – С. 494-496.
7. Stefan Malthaner, The Radical Milieu, (Bielefeld: Institut für interdisziplinäre Konflikt- und Gewaltforschung (IKG), November 2010), p. 1;

8. <https://www.xabar.uz/tahlil/jamiyatda-mustaql-fikr-bogilsa>
9. Hegghammer T. The recruiter's dilemma: Signalling and rebel recruitment tactics //Journal of Peace Research. – 2013. – Т. 50. – №. 1. – С. 3-16.
10. Криминологический анализ угроз экстремистского характера в Крымском федеральном округе: монография / А. Н. Игнатов, А. А. Кацкаров, Д. В. Новиков. Симферополь: Крымский филиал Краснодарского университета МВД России, 2016. – 208 с.
11. Игнатов А.Н., Абисова К.С. Религиозная радикализация мест принудительного содержания как фактор экстремизма и терроризма //Ученые записки Крымского федерального университета имени ВИ Вернадского. Юридические науки. – 2019. – Т. 5. – №. 3. – С. 136-144.